

AZM-U SHIJOATLI YOSHLARIMIZNING ZAMONAVIY BILIMLARNI EGALLAB ERISHAYOTGAN MUVAFFAQIYATLARI YANGI O‘ZBEKISTON KELAJAGIGA TAYANCH

30-iyun kuni mamlakatimizda Yoshlar kuni keng nishonlandi. Asosiy bayram tadbirlari Toshkentdagi Xalqaro kongress markazida bo‘lib o‘tdi.



O‘zbekiston yoshlarini tabriklash va qo‘llab-quvvatlash uchun bu yerga Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurdi.

Kongress markaziga kiraverishda yoshlarning turli sohalaridagi loyihalari, kashfiyot va yutuqlari taqdimot qilindi. Masalan, “Yosh innovatorlar” ko‘rgazmasida muhandislik, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, uchuvchisiz qurilmalar namoyish etilgan. “Yashil” tashabbuslar” maydonchasida ekologiya, muqobil energetika, qishloq xo‘jaligi kabi sohalariga

oid ishlanmalar ko‘rsatilgan. “Kreativ loyihalar” bo‘limidan hunarmandlik, dizayn, tasviriy san‘at, video va prodyuserlik faoliyatidagi yutuqlar o‘rin olgan. “Yoshlar tadbirkorligi va startaplar” maydonchasida ushbu yo‘nalishdagi muvaffaqiyatli loyihalar haqida ma‘lumot berilgan.

Jumladan, toshkentlik Rustam Hamdamovning “Billiz” dasturi kichik va o‘rta biznesni avtomatlashtirishga yordam beradi. Hozirgacha bu loyihaga Buyuk Britaniya, Singapur, Turkiya ishbilarmonlari

6 million 600 ming AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritgan.

Qoraqalpog‘istonlik yosh fermer Sherzod Niyazimbetov organik pomidorlar yetishtirib, quyoshda quritib va qadoqlab, Italiya hamda Fransiya kabi davlatlarga eksport qilmoqda. Uning korxonasida 200 nafarga yaqin xodim ishlamoqda.

O‘zbekiston Prezidentining 2019-yildagi qarori bilan tashkil etilgan Yoshlar akademiyasi bugungi kunda 7 mingdan ziyod yosh olimlarni birlashtirgan. Ko‘rgazmada

ular uchun keng o‘rin ajratilgan. Toshkentlik Sayfullo Qodirov ekin maydonlarini raqamli xaritalash va yuqoridan dori sepih imkonini beruvchi dronlar yasagan.

Olimlar orasida “Raqamli avlod qizlari” tanlovi g‘olibalari ko‘pligi ham diqqatga sazovor. Xorazmlik Lobar Abdullayeva ekologik kasalliklarga sun‘iy intellekt orqali tashxis qo‘yishga mo‘ljallangan “AI Scan” dasturini ishlab chiqqan. Qoraqalpog‘istonlik Qumara Sagidullayeva quyosh energiyasida yuruvchi kichik

traktor, toshkentlik Abdulloh Jamoliddinov bog‘ni avtomatik sug‘orish tizimini ixtiro qilgan.

Davlatimiz rahbari mazkur taqdimotlar bilan tanishib, ularning tashabbuskorlari bilan muloqot qildi.

— Yoshlarimizning har bir muvaffaqiyati biz uchun kuch-qudrat, mamlakatimiz kelajagiga tayanch. Bugun farzandlarimiz zamonaviy yo‘nalishlarni egallab, ancha ilgirilab ketyapti. Ularni qo‘llab-quvvatlasak, sifatli ta‘lim berib, sharoit yaratsak, bundan

ham katta natijalarga erishadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mutasaddilarga ixtirochi yoshlarni tegishli vazirliklarga birlashtirib, loyihalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Yurtimizda bunday iqtidorli o‘g‘il-qizlar ko‘p. Bu ta‘lim sohasiga, ayniqsa, STEAM yo‘nalishlariga qaratilayotgan e‘tibor natijasi. So‘nggi yillarda matematika, fizika, kimyo va axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan ko‘plab maktablar tashkil etildi.

Davomi 3-beta

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING YOSHLAR KUNIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Qadrlı farzandlarim!

Avvalo, siz, aziz o‘g‘il-qizlarimni, sizlarning timsolingizda butun O‘zbekiston yoshlarini qutlug‘ ayyom — Yoshlar kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Sizdek navqiron avlod vakillarini bugun mana shunday a‘lo kayfiyatda ko‘rib turganimdan benihoya xursandman.

Keyingi yillarda iqtisodiyotimiz tez sur‘atlar bilan o‘tib, barcha sohalarida imkoniyatlarimiz ortib borayotganida, hech shubhasiz, siz yoshlarning ham munosib hissangiz bor.

Bir so‘z bilan aytganda, bizning bebaho boyligimiz ham, kelajak uchun eng katta dividendimiz ham, yoshlar, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Bilagida kuch-g‘ayrat, har bir harakatida azmu shijoat jo‘sh urgan yigitlarimizni, bilim va odobda, aql-zakovatda tengsiz qizlarimizni ko‘rib, har

qanday xalq, har qanday davlat bizga havas qilsa arziydi.

Katta-katta davlatlar, dunyoning eng nufuzli kompaniyalari bugun bizga nega ishonmoqda? Nega milliardlab dollar investitsiyalar kiritmoqda?

Bu, albatta, bejiz emas. Chunki hamkorlarimiz yoshlarimizning ilm-fan, ta‘lim, IT, madaniyat, san‘at va sportdagi yutuqlarini ko‘rib, salohiyatimizga baho bermoqda, ertangi kunimiz poydevori mustahkam ekaniga ishonch hosil qilmoqda.

Biz islohotlarimizni boshlagan ilk kunlardan o‘q “ilm — tarbiya — innovatsiya” zanjirini yaratishga kirishdik. Bu yo‘ldagi harakatlarimiz bugun aniq natijalar bermoqda.

Mana, bir misol. O‘tgan yili yurtimiz yoshlari TOP-500 talik oliyoghlarga kirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni egalladi. Bilimli yoshlarimiz ilk bor TOP-

5 talikdagi oliyoghlarga kirib, tarixiy natija qayd etganlari ham barchamizni quvontiradi. Bugungi kunda 30 nafar yoshlarimiz dunyoning TOP-10 talik oliyoghida, 500 nafari TOP-100 va 1 ming 500 nafari TOP-300 talikdan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda.

Ushbu muhtasham zalda o‘tirgan Jasurbek Umarov — Garvard universitetiga, Ruxshona Sobirova — Pensilvaniya, Asilbek Ashurov — Chikago universitetiga bu yil 100 foiz grant asosida o‘qishga kirgani ta‘limdagi islohotlarimiz naqadar natijador bo‘layotganiga yaqqol dalildir.

Yaqinda butun yurtimizda barchamiz uzoq kutgan katta futbol bayrami bo‘lib o‘tdi. Xalqimizning 34 yillik orzusi ushaldi — milliy terma jamoamiz tarixda ilk bor jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi.

Yaqin-yaqin gacha umrini paxta dalasida o‘tkazgan oddiy oila farzandlari ilmda,

sportda, boshqa sohalarida bunday yuksak marralarni egallashini tasavvur qilish ham qiyin edi. Biz yoshlarimiz uchun sharoit yaratdik, ular bundan unumli foydalanib, baland cho‘qqilarni zabt etmoqda.

Bugun sizlar kabi zehni o‘tkir, mehnatsevar va fidoyi farzandlarimga qarab, orangizdan fizika, kimyo, tibbiyot, iqtisodiyot, adabiyot bo‘yicha yangi Xorazmiylar, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek va Navoiylar yetishib chiqishiga albatta ishonaman.

Birinchı va Ikkinchi Rennessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarida mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz.

Sizlar — Yangi O‘zbekiston buniyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz!

Fursatdan foydalanib, mana shu quvonchli ayyomda Vatanimiz ravnaqi yo‘lida intilish, ilm olish va mehnat qilishdan charchamaydigan barcha yoshlarimizga, bilimli, tarbiyalı va sog‘lom farzandlarni kamolga yetkazayotgan ota-onalarga, katta hayotga qadam qo‘yishlarida yoshlarga eng yaqin maslahatchi bo‘layotgan hurmatli ustoz va murabbiylarga samimiy minnatdorligimni bildiraman.

Aziz o‘g‘il-qizlarim!

Hozirgi vaqtda dunyo qanday notinch, qanday murakkab bo‘lib borayotganini ko‘rib turibmiz. Tinchlik — eng buyuk ne‘mat, inson qadri va adolat — eng oliy qadriyat ekanini har qachongidan ham chuqur his etmoqdamiz.

Alisher Navoiy bobomizning **“Bilim xazinasini yoshlikda to‘pla”**, degan so‘zlarida albatta juda chuqur ma‘no bor. Chindan ham, ilm va ma‘rifat bilan

qurollangan, vatanparvar xalq har qanday sinovlardan munosib o‘ta oladi. Yuksak bilimli, dunyoqarashi keng, zamonaviy fikrlaydigan, texnologik jihatdan savodxon yoshlari ko‘p bo‘lgan yurtda tinchlik va taraqqiyot, o‘zaro jipslik hamisha barqaror bo‘ladi.

Yoshlarimizga sifatli ta‘lim va tarbiya berish, zamonaviy kasb va hunarlar, xorijiy tillarni o‘rgatish, hayotda munosib o‘rin topishi uchun zarur sharoitlar yaratish — eng asosiy vazifamiz va burchimizga aylangan.

Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, hududini namunali qilgan viloyat va tumanlarimiz ko‘p. Misol uchun, yosh tadbirkorlarimiz tashkil qilgan 261 ta korxonaning yillik oboroti 100 milliard so‘mdan oshdi.

Davomi 2-beta

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI — ISLOHOTLAR SAMARADORLIGI ASOSI

Bugun O‘zbekistondagi keng qamrovli islohotlar mamlakat taraqqiyoti, jamiyat farovonligi va fuqarolar hayotini yaxshilashga qaratilgan. Islohotlarning samarali va o‘z vaqtida amalga oshirilishi esa, avvalo, ijro intizomiga bog‘liqdir. Shu jihatdan qaralganda, ijro intizomi islohotlarning muvaffaqiyatiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat

boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini

kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Davomi 4-beta

YASHNAYOTGAN QASHQADARYO: FAROVONLIK SARI

Qadim voha ta‘rifi

Ulug‘larimiz “Vatanni shunchaki sevish mumkin emas, uning dardi bilan yashamoq, baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak”, deydi. Yurt sarhadlaridagi farovonlikdan zavqlanish, g‘ururlanish esa ijodkorga o‘zgacha zavq ato etadi. Inson ruhiyatining jozib kechinmalariga bundan ortiq ta‘rif yo‘q.

Ne-ne zakolarni kamolga yetkazgan, ne-ne daholarni elga qo‘shgan benazir zamin, tilidan shukrona tushmaydigan, mehnatidan baraka topgan, mard va oqko‘ngil insonlar yurti — Qashqadaryo bu!

Davomi 6-beta





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING YOSHLAR KUNIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Ilgari bu borada faqat Toshkent shahri yakka holda peshqadamlik qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, Toshkent viloyati, Samarqand, Andijon, Namangan va Farg'ona yoshlarining biznesdagi natijalari ham poytaxtdan qolishmayapti.

Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo va Xorazm yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha ilg'or hududlarga aylandi. Yoki yoshlarning oliygohga kirish ko'rsatkichi bo'yicha Surxondaryo bir yil davomida 11-o'ringdan 4-o'ringa ko'tarilib, katta sakrasha erishdi. Jizzax va Sirdaryo viloyatlari ham bu borada yaxshi natija ko'rsatmoqda.

Ikki yil oldin xalqaro fan olimpiadalarida 7 ta hududdan 45 nafar o'quvchi sovrin olgan bo'lsa, o'tgan 6 oyda ularning safiga Jizzax, Andijon, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, Toshkent viloyatlari o'quvchilari ham qo'shilib, jami 166 ta medal qo'lga kiritildi.

“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 325 ming nafar yosh o'qitildi. Ayniqsa, Xorazm, Qashqadaryo va Samarqandda yoshlarimiz IT sohasida katta daromad topishga erishayotgani e'tiborlidir.

Boshqa bir misol. O'tgan yili 150 mingdan ziyod yoshlarimiz xalqaro til sertifikatlarini oldi. Bu — 2023-yilga nisbatan 2 barobar ko'p. Xorijiy tillarni mukammal bilish (Si-1) bo'yicha Toshkent shahri, Farg'ona, Namangan, Buxoro va Samarqand viloyatlari yoshlari ancha ilgari lab ketganini ta'kidlash lozim.

Katta salohiyatga ega bo'lgan tumanlar yoshlarni tilga va zamonaviy kasblarga o'rgatib, ishli qilish, oliy ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha Bektemir, Zafarobod, Qorovulbozor va Arnasoydan o'rnak olishi kerak.

Shu o'rinda 2 ta masalaga alohida urg'u berib o'timoqchiman.

Birinchidan, albatta, yoshlarning tilini yoshlar tushunadi, ular bir-biridan o'rnak oladi, bir-biriga motivatsiya beradi.

Shu bois, 9 mingdan ziyod mahallada yoshlar yetakchilarini tayinladik. Ular uch yil davomida ko'p narsani o'rgandi, yetarli tajriba ortirdi. Endi ular maktab, texnikum, til va kasb markazlari bilan ham ishlashni o'rganishlari lozim.

Yoshlar yetakchilari har hafta maktab direktorlari, sinf rahbarlari, ota-onalar bilan uchrashib, qo'shimcha til va kasblarga qiziqishi, ishlashga xohishi bor o'quvchilarni aniqlaydi, hokim yordamchilari ko'magida o'z hududidagi korxonalar, til va kasb markazlari bilan gaplashib, o'quvchilarni ularga bog'lab beradi, sport va fanlarga qiziqadiganlarni to'garaklarga jalb etadi. Ushbu tadbirlar uchun “Yoshlar daftari” orqali berilgan mablag'larni ishlatadi.

Ikkinchidan, mahallalarimizda 167 ming nafar uyushmagan yoshlarimiz, tarbiyasi og'ir va huquqbuzarlik qilgan 17 ming o'quvchi borligi hammamizni o'ylandirishi kerak.

Ayniqsa, ko'p sohalarida ilg'or bo'lgan Andijon, Xorazm, Qoraqalpog'iston va Buxoroda bunday yoshlarning ulushi yuqoriligi ularga albatta yarashmaydi.

Keyingi paytda yoshlar orasida giyohvandlik, ruhiyatga ta'sir qiladigan “tabletkalar”lar iste'mol qilish tarqalib borayotgani mudhish bir balo, desak, to'g'ri bo'ladi.

Shu o'rinda yangi saylangan mahalla raislariga murojaat qilmoqchiman. Mahalladagi tinchlik, hamjihatlik, mehroqibat, sog'lom muhit kimga bog'liq? Avvalo, sizlarga bog'liq. Mahalla raisi faqatgina “oqsogol” emas, yoshlarning eng yaqin do'sti, sirdoshi, ko'makdoshi. Mahalla raisi — bu mahallaning vijdoni. Mahallada bitta bo'lsa ham bolaning noto'g'ri yo'lga kirishi sizlar uchun favqulodda holat bo'lishi kerak.

Shuning uchun har bir bola haqida, uning taqdiri, kelajagi haqida avvalo sizlar ko'proq qayg'urishingiz lozim. Mahalla raislari yoshlar bilan tez-

tez muloqot qilib, ishsiz yurganini mahallasidagi 10-20 nafar yaxshi tadbirkorga bog'lab qo'ysa, ilm olaman, IT bilan shug'ullanaman, kitob o'qiyman, sportga boraman, deganiga sharoit yaratib bersa, bilasizlarmi, vaziyat qanday o'zgaradi, ota-onalarning og'irini qancha yengil qilamiz! Bunday ezgu ishlarimiz Yaratganga ham, xalqimizga ham albatta ma'qul bo'ladi.

Sizlar bu vazifalarni uddalashingizga ishonaman. Buning uchun sizlarda bilim ham, tajriba ham, kuch-g'ayrat ham yetarli. Eng muhimi, odamlar sizlarga ishonadi, sizlarga ergashadi.

Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz zarur. Bolaning yomoni bo'lmaydi. Ularga kattalarning mehri, imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun sharoit, o'ziga ishonch bo'lishi uchun motivatsiya kerak.

Misol uchun, Tadbirkorlik jamoatchilik kengashi a'zolari — 108 nafar “champion” tadbirkorimiz o'zlarining 308 ta korxonasi atrofidagi maktablarga borib, yuqori sinf o'quvchilarini kasbga qiziqtirayotganini tahsinga sazovordir.

Eng muhimi, bu o'quvchilarning aksariyati kelajakda hayotini qaysi kasb bilan bog'lash haqida aniq tasavvurga ega bo'lmoqda.

Bunday tashabbuskor, fidoyi, vatanparvar tadbirkorlar — mening qanotlarim. Ularning ko'pchiligini bugun mana shu zalda ko'rib turibman.

Aytinglar, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni kasbga yetaklash, ishli va daromadli qilish uchun sizlarga yana qanday sharoitlar yaratib berishim mumkin?

Azmu shijoatli tadbirkorlarimiz hokimlar bilan uchrashib, takliflarini tez kunda shakllantirib bersa, ularning barchasini ko'rib chiqishga tayyorman.

Shu bilan birga, respublikamiz bo'yicha 15 mingga yaqin o'quv va 7,5 mingga kasbga tayyorlash markazlari mavjud. So'nggi yillarda ular uchun 100 dan ortiq imtiyoz va yengilliklar berdik.

Fursatdan foydalanib, bunday markazlarga, ularning faollariga ham murojaat qilaman.

Sizlar hozirgi ko'rsatkichlaringiz bilan cheklanib qolmang, faoliyatni kengaytirib, zamonaviy kasblar va xorijiy tillarni o'rganayotgan yoshlarni bir necha karra ko'paytiring, buning uchun sizlarga yana qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib beraman.

Men hokimlardan har masalani hamisha talab qilib kelaman, bundan keyin ham talab qilaman.

Viloyat va tuman hokimlari har bir bolaga o'z farzandidek qarab, ularning sog'lig'i, o'qishi, yurish-turishi, qiziqishi va orzu-intilishlari, muammolaridan doim xabardor bo'lishi zarur. Ular yoshlar bilan muntazam muloqot platformasini yo'lga qo'yib, maktab, oliygoh, o'quv va kasb markazlari, tadbirkorlarning boshini qovushirib, yoshlarga ko'maklashadigan yangi bir tizim yaratsa, albatta natija bo'ladi.

Bu ishlar “kampaniyabozlik”ka aylanib ketmasligi, bo'layotgan o'zgarishlarni har bir mahalladagi har bir yosh har kuni chuqur his etishi zarur.

Davlat xavfsizlik xizmati (J.Jo'rayev) buning ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatadi.

Ana shunda Yangi O'zbekistonda ta'lim olmagan, ishsiz, kasb egallamagan, bir so'z bilan aytganda, uyushmagan yoshlar degan tushunchalarning o'zi qolmaydi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Xabaringiz bor, fevral oyidagi uchrashuvimizda yoshlar uchun 40 dan ziyod yangi tashabbuslarni e'lon qilib, qariyb 500 million dollar ajratdik. Yoshlar uchun, ularning istiqboli uchun bugun kiritilgan mablag', investitsiya, ertaga albatta o'n, yuz, ming barobar bo'lib qaytadi.

Sizlar ilm oling, yangi-yangi g'oyalar bering, kashfiyot va loyihalar qiling, izlanish va harakatdan charchamang! Men sizlarni doimo qo'llab-quvvatlashga tayyorman!

Bu yil 35 milliard dollarlik 8 ming 300 ta loyihani ishga tushirib, 292 mingga yangi ish o'rni yaratdik. Yana 500 mingga ish o'rni yaratadigan 83 milliard dollarlik loyihalarni boshlaymiz.

Masalan, energetikada — 20 milliard, neft-gaz va kimyoda — 11 milliard, tog'-konda — 7 milliard, elektrotexnika va avtomobilsozlikda 4,5 milliard dollarlik minglab korxonalar ishga tushiriladi. Ushbu loyihalar Qoraqalpog'istondan Andijongacha, Surxondaryodan Toshkentgacha — barcha hududlarda amalga oshiriladi.

Ana shunday ishlarimiz boshlanishi bilan “yashil” iqtisodiyot, “yashil” energiya, raqamli geologiya, texnologik minerallar, bioinjeneriya yo'nalishlarida minglab mutaxassislarga talab paydo bo'ladi. Afsuski, bunday yuqori malakali mutaxassislar o'zimizda yetishmagani bois hozirgi vaqtda ularni chetdan olib kelyapmiz.

Yangi texnologiyalar asrida kim yutadi? Faqat kreativ fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasblarni egallagan mutaxassislar yutadi. Bugun sizlardagi g'ayrat-shijoatni ko'rib turibman, albatta siz, aziz yoshlar bu korxonalarni boshqarib, katta-katta kashfiyotlar qilasiz, ularga innovatsiyalarni olib kirasiz.

Shu sababli hozirdanoq bunday loyihalar bo'yicha kadrlar tayyorlashni boshlaymiz.

Qadrl! yurtdoshlar!

Xabaringiz bor, yaqinda “Garvardchilar” maktabini ochish bo'yicha katta farmonni imzoladim. Bu muassasa Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro maktab sifatida faoliyatini boshlab yubordi. Ushbu xalqaro maktabga bu yilgi 8-sinf bitiruvchilari orasidan 60 nafar o'quvchini saralab olib, 3 ta yo'nalishda o'qitamiz.

Hali qabul tugamasidan bitta o'ringa 275 nafar o'quvchi talabgor bo'lmoqda. Biz ushbu o'rnlarni kelgusida bir necha karra ko'paytiramiz. Umuman, Milliy dastur asosida har yili eng salohiyatli 3 ming o'quvchi seleksiya qilinib, Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi dunyoning nufuzli oliygohlarga tayyorlanadi. Shundan kamida 300 nafari ehtiyojmand oila farzandlari bo'ladi.

Bugungi kunda “Ta'lim — kelajak sarmoyasi”, degan ezgu g'oya jamiyatimizda katta harakatga aylanmoqda. Nufuzli xorijiy oliygohlarga kirayotgan barcha yoshlarimiz ham 100 foizlik grant olish imkoniyatiga ega emas. Bu tabiiy, albatta.

Yaqinda “El-yurt umidi” jamg'armasi faoliyatini takomillashtirdik. Endi TOP-300 talik oliygohga kirganlar uchun o'qish va yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda ishlay boshlaydi.

Eng avvalo, STEAM — ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika yo'nalishlari, energetika, transport, urbanizatsiya, arxitektura, qurilish, qishloq va suv xo'jaligi kabi drayver sohalar uchun kvotalarni bir necha karra oshiraypimiz.

Biz yana bir masalani hal qildik — endi banklar TOP-300 talik oliygohga kirgan yoshlarimizga 20 ming dollargacha imtiyozli kredit beradi.

Yana bir muhim yo'nalish — sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha bank-moliya, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va energetikani ustuvor sohalar sifatida belgilab, 100 ta loyihani amalga oshiramiz. Bu borada yana katta-katta rejalarnimiz bor. Xususan, qadriyatlarimiz va madaniyatimizni o'zida ifoda etadigan sun'iy intellektning milliy modelini ishlab chiqishni boshladik.

Aminmanki, bu ishlarimiz boy tariximiz va zamonaviy yondashuvlarni o'zida uyg'unlashtirib, yoshlarning yangi kreativ g'oyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tizim samara berishi uchun Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda “Bir million sun'iy intellekt yetakchilari” dasturini ishga tushiryapmiz.

Shu yilning o'zida “AI Study” platformasi orqali kamida 100 ming yoshlarimiz sun'iy intellekt

texnologiyalarini o'rganadi. Iшонaman, bu yangi loyiha hisobidan sun'iy intellekt sohasida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarning yanada ko'payadi.

Hozirgi kunda maktablarimizda 19 ming 500 nafar informatika o'qituvchisi bor. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ikki oyda dunyodagi birinchi raqamli Massachusets texnologiya institutining sun'iy intellekt ta'lim dasturi asosida o'quv dasturlarimizni yangilaydi.

Har bir viloyatdan 100 nafar informatika o'qituvchisini tanlab, bu yil Yangi O'zbekiston universitetida ushbu dasturga o'qitadi. Ushbu mentor o'qituvchilar o'z hududidagi qolgan informatika o'qituvchilarini ikki yil davomida kaskad usulida tayyorlaydi. Bu orqali besh yilda barcha maktab bitiruvchilari sun'iy intellekt bo'yicha yetarli bilim oladi.

Yana bir yo'nalishga e'tiboringizni qaratmoqchiman. “Raqamli avlod qizlari” tanlovida ta'lim, sun'iy intellekt, “yashil” iqtisodiyot, iqlim o'zgarishi kabi sohalarida 7 ming o'quvchi va talabning 120 ta startap loyihasi tanlab olindi.

IT sohasining boshqa kasblardan ustunligi nimada, bilasizlarmi? Yaxshi kompyuter, internet va ko'nikma bo'lsa, barcha ishni uyda bajarsa bo'ladi. Bitta tikuv mashinasining puliga ozgina qo'shib, yaxshi kompyuter olib berilsa, qizlarimiz uyda ham ming dollargacha daromad topadi.

Shu bois, bu yil kamida 50 ming nafar qizimizni “Raqamli avlod qizlari” loyihasi bilan qamrab olamiz. Raqamlashtirish vazirligi (Sh.Shermatov) va Milliy bank (A.Mirsoatov) yil yakunigacha IT va til sertifikatini bor yoshlarni kafolatli ishga joylaydigan tizim yaratadi.

Biz startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizim yaratdik. Ularni moliyalashtirishga 145 million dollar venchur sarmoya kiritildi. Bu raqamni 1 milliard dollarga yetkazamiz. Endi bu ishlarni maktabdan boshlaymiz. O'quvchilar uchun “mohirlik va biznes soati” kiritilib, ularning g'oyasini startapga aylantirishga 100 milliard so'm grant ajratamiz.

Oliyoghlr o'rtasida ham startaplar bo'yicha har yili “Eng yaxshi kreativ g'oya” tanlovi o'tkazilib, g'oliblarga oliygoh jamg'armasidan 300 million so'mgacha grant beriladi. Startapni prototipga aylantirish va sinovdan o'tkazish uchun Innovatsiya agentligi va IT park “R&D” markazini ochadi. Bunda eng yaxshi loyihalar bo'yicha prototip yaratish xarajatining 50 ming dollargacha qismi Yoshlar venchur jamg'armasidan qoplanadi.

Savdo-sanoat palatasi har yili investorlar, yirik korxona va startap loyihalarining tashabbuskorlari ishtirokida ham “Startap-ekspo” ko'rgazmasini o'tkazib boradi.

Hozirgi kunda tog'-kon, agrosanoat, to'qimachilik, kimyo, elektrotexnika, qurilish materiallari sohasida 1 million yoshlar mehnat qilmoqda.

Endi sanoat, servis, tadbirkorlik va qishloq xo'jaligida band yoshlarning kasbiy rivojlanishi bo'yicha ham tizim yaratamiz. Har bir kasb yo'nalishi bo'yicha aynan yoshlar o'rtasida respublika musobaqalari o'tkaziladi. Bunda davlat korxonalari va xususiy sektor vakillari tepqa-teng ishtirok etadi.

Tarmoq rahbarlari har yili o'z tizimidagi 100 nafar yoshni seleksiya qilib, xorijiy stajirovkaga yuborishni yo'lga qo'yadi. Buning uchun har bir tarmoq 10 milliard so'mdan ajratadi. Bu mablag'larni soliq solish bazasidan chegirib tashlaymiz.

Bunga Savdo-sanoat palatasi (D.Vahobov) bosh-qosh bo'ladi.

Keyingi paytda o'qishga kira olmagan maktab bitiruvchilari hamda texnikum va oliygohlarni tugatayotgan talabalarni band etish bo'yicha 2 ta alohida dastur qabul qildik. Shu maqsadda “Aloqabank” va Milliy banka 300 million dollar ajratildi. Ular “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida 100 ming yoshlarni, “Kelajakka

qadam” dasturi orqali 140 ming oliygoh bitiruvchisini daromadli ish bilan ta'minlashga mas'ul bo'ladi.

Yil yakunida qancha yoshni ishli qilgani bo'yicha “Aloqabank” (K.Irisbekova) va Milliy bank (A.Mirsoatov) hisobotini o'zim qabul qilaman.

Bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasi Milliy bank bilan birga yil yakunigacha oliygoh, texnikum, kasbiy ta'lim bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bog'laydigan platformani ishga tushiradi.

Bandlik, Maktab, Oliy ta'lim vazirlilari “Harakatda daromad” elektron tizimini yaratib, ta'tildagi 3 million yoshlarni malaka talab qilmaydigan ishlar bilan band qiladi.

Savdo-sanoat palatasi (D.Vahobov), Savdo-servis uyushmasi (Z.Hoshimov) har yili yuqori sinf o'quvchilarini kasb tanlashga qiziqtirish va ko'maklashish maqsadida “Mening kasbim” respublika tanlovini o'tkazadi.

Migratsiya agentligi (B.Musayev) qaysi mamlakatda qaysi kasb rivojlangan bo'lsa, g'oliblarni o'sha davlatga ko'nikmasini oshirish uchun yuboradi.

Kichik biznesga qo'shimcha sharoitlarni yaratish ustida ishlayapmiz. Buni yaqinda e'lon qilamiz.

So'nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari tarkibi ancha yosharib, 40 yoshgacha bo'lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga oshdi. Biz Yangi O'zbekistonda “xalq xizmatidagi davlat” tamoyilini ro'yogba chiqarishda siz kabi iqtidorli, jonkuyar va yetakchilik qobiliyatiga ega bo'yicha o'g'il-qizlarimizga tayanamiz.

Shu bois, o'tgan oyda istiqbolli kadrlarni tayyorlash va davlat boshqaruviga jalb etish bo'yicha muhim farmonni imzoladim. Endi Davlat boshqaruvi akademiyasida “Kelajak liderlari” dasturi bo'yicha har yili 100 nafar salohiyatli yoshlar o'qitiladi. Bu yoshlar vazir va hokimlarga birlashtiriladi, ikki oy ularning yonida yurib, tajriba orttiradi. Keyin bir oyga xorijiy stajirovkaga yuboriladi. Dasturni tamomlagan yoshlar rahbarlik lavozimlariga asosiy nomzod bo'ladi.

Yoshlarimizning kitob o'qishga qiziqishini oshirishda tanlovlar muhim rol o'ynamoqda.

Birgina misol, Muhammad Xorazmiy nomidagi maktabning 8-sinf o'quvchisi Dilbar Haydarova “Yosh kitobxon” tanlovida g'olib bo'lib, ota-onasiga Prezident sovrini — avtomobil sovg'a qildi.

Dilbarxon qizim, sen o'z misolingda inson chin dildan harakat qilsa, ko'p narsaga erisha olishini isbotlading, bu yo'lda ko'pchilik uchun namuna bo'lding. Buning uchun katta rahmat senga! Seni voyaga yetkazgan ota-onangga ham alohida minnatdorlik bildiraman.

Yoshlarning aktyorlik, musiqa, kitobxonlikka qiziqishini oshirish uchun “Turon” teatri, “Iqtidor ansambli”, “Jadidlar izidan” kabi tanlovlar o'tkazilib, ularda 400 mingga yaqin o'quvchi ishtirok etdi.

Endi tanlovlarda g'olib bo'lgan jamoalar chekka hududlardagi maktab-larga muntazam borib, o'z chiqishlari bilan tengdoshlarini madaniyat va san'atga qiziqtiradi. Buning uchun viloyat hokimlari bittadan avtobus olib beradi. Respublika tanlovi g'oliblariga madaniyat va san'at oliygohlariga kirishda imtiyoz beriladi. “Iqtidor” maktab ansambli tanlovining viloyat bosqichi g'oliblari Bolalar va musiqa san'at maktablarida bepul o'qitiladi.

Yosh avlodni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularga axborot makonida foydali, mazmunli ma'lumotlarni yetkazish va targ'ib qilish doim e'tiborimiz markazida bo'lishi zarur.

Shu maqsadda Bolalar kontentini rivojlantirish markazini tashkil etdik. Ushbu markaz milliy madaniyat, san'at, adabiyot, tarix va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga mo'ljallangan tarbiyaviy kontentlar yaratish uchun mas'ul bo'ladi.

Joriy yildan boshlab mahallalarda o'tkazilgan “Shijoat va g'ayrat” harbiy-

sport musobaqalarida 244 ming nafar yigit-qiz ishtirok etdi, 1 milliondan ziyod yoshlar esa ularni katta qiziqish bilan kuzatib bordi.

Birso'z bilan aytganda, bu bellashuvlar vatanparvarlik, jasorat va jipslikni targ'ib etadigan muhim harakatga aylandi.

Mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ko'z qorachig'idek asrashda siz, aziz yoshlarimizga tayanamiz.

Unutmang, mustaqillik — bu shunchaki rasmiy maqom emas, balki har bir yoshga o'z taqdirini o'zi belgilash imkonini beradigan buyuk ne'mat.

Mana, 9-may — Xotira va qadrlash kunida poytaxtimizdagi “G'alaba bog'i”da “Millat fidoyilari” monumentini ochdik. Bu yerda el-yurtimiz tinchligi yo'lida aziz jonini fido qilgan 196 nafar mard va jasur harbiylarimiz, huquq-tartibot idoralari xodimlarining nomlari muhurlangan.

Yoshlarimiz uchun vatanparvarlik, mardlik va shon-sharaf maktabini anglash, ularni qahramonlik ruhida tarbiyalashda bu maskanning ahamiyati juda katta.

Vazirlar, hokimlar ushbu qutlug' maskanga yoshlarni ko'proq olib borsa, ularda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usi yanada yuksaladi.

Yoshlarga oid islohotlarimizni xalqaro hamjamiyat ham keng e'tirof etmoqda. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti “Yoshlar — 2030” strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirdi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz yoshlar siyosati sohasida eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlat, deb topildi. Buxoro shahri — Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent shahri — Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi yoshlari poytaxti maqomini oldi.

Shu kunlarda yurtimizda o'tkazilayotgan Global yoshlar festivalida 30 dan ortiq davlatdan kelgan 300 nafardan ziyod yoshlar, 10 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etmoqda.

Ishonchim komil, ushbu forum nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo yoshlari uchun samarali hamkorlik va o'zaro tajriba almashish maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Men bugun “Kreativ iqtisodiyot”, “Raqamli “yashil” tashabbuslar”, “Yoshlar tadbirkorligi va startaplar” va “Yosh innovatorlar” maydonchalaridagi o'g'il-qizlarimiz bilan muloqot qilib, hozirgi yoshlarimiz — Yangi O'zbekistonning haqiqiy bunyodkorlari ekaniga yana bir bor amin bo'ldim.

Men sizlar bilan faxrlanaman! Sizlarning har bir yutug'ingiz bu — ko'p millatli butun xalqimizning yutug'idir.

Azmu o'z shijoatingiz, sog'lom dunyoqarashingiz, baxt-u iqbolingiz — millionlab ota-onalar, ustoz-murabbiylar, yaqinlaringizning ham baxt-u saodatidir. Aziz farzandlarim!

Yoshlikda olingan bilim — toshga o'yilgan naqsh, kelajak uchun poydevor degani. Poydevor qancha mustahkam bo'lsa, hayotingiz, baxtingiz binosi shunchalik muhtasham bo'ladi.

Yoshlikdagi harakat bu — kelajakdagi yutug' degani.

Yoshlikda o'tirilgan do'st — bir umrlik hamkor, tayanch va suyanch degani.

Hech qachon unutmang, farzandlari bilimli, sog'lom, mard va jasur, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning kelajagi albatta yorug' bo'ladi.

Men butun O'zbekiston yoshlari ana shunday fazilatlar egasi bo'lishini tilayman.

Ishonchim komil, biz butun xalqimiz bilan, siz, aziz farzandlarim bilan ulug' maqsadlarimizga albatta yetamiz!

Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda albatta barpo etamiz!

Bugungi ayyom bilan sizlarni yana bir bor tabriklayman, barchangizga omad va zafarlar hamroh bo'lsin!

Doimo sog'-omon bo'linglar!



AZM-U SHIJOATLI YOSHLARIMIZNING ZAMONAVIY BILIMLARNI EGALLAB ERISHAYOTGAN MUVAFFAQIYATLARI YANGI O‘ZBEKISTON KELAJAGIGA TAYANCH

Boshlanishi 1-betda

Yosh tadbirkorlar tashkil qilgan 261 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 milliard so‘mdan oshgan. Startaplarni moliyalashtirishga 145 million dollar venchur sarmoya kiritilgan.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro kongress markazida 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan uchrashuvda nutq so‘zladi. O‘zbekiston yoshlarini ushbu qutlug‘ ayyom bilan tabriklab, ularga mehri va ishonchini bildirdi.

Mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar aniq natijalar berayotgani qayd etildi. O‘tgan yili yurtimiz yoshlari TOP-500 talik oliyoghlarga kirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni egalladi. Bugungi kunda 30 nafar yigit-qiz dunyodagi TOP-10, 500 nafari TOP-100 va 1 ming 500 nafari TOP-300 dan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda.

Yurtdoshlarimiz san‘at, sport sohalarida ham katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Yaqinda futbol bo‘yicha milliy terma jamoamiz tarixda ilk bor jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi.

— Birinchi va ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatini sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarida mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz, — deya ta‘kidladi Prezident.

Yoshlarga sifati ta‘lim-tarbiya berish, xorijiy tillarni o‘rgatish, kasb egallab, hayotda munosib o‘rin topishiga ko‘maklashish — davlatimizning asosiy vazifasiga aylangan. Bunda zamon talabidan kelib chiqib, zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Jumladan, “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 325 ming yoshlar o‘qitilgan. O‘tgan yili 150 mingdan ziyod yigit-qiz xalqaro til sertifikatlari olgan, bu — 2023-yilga nisbatan 2 baravar ko‘p.

Bu yil 35 milliard dollarlik 8 ming 300 ta loyiha orqali 292 mingta ish o‘rni yaratilmoqda. Yana 500 mingta ish o‘rni yaratadigan 83 milliard dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. Natijada “yashil” iqtisodiyot, sanoat, energetika, geologiya, muhandislik va boshqa sohalarida minglab mutaxassislarga talab paydo bo‘ladi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari yoshlarga imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni bildirdi.

Xususan, Prezidentimiz farmoni bilan Beruniy nomidagi xalqaro maktab tashkil etildi. Unga 8-sinf bitiruvchilari orasidan 60 nafar o‘quvchi saralab olinib, 3 ta yo‘nalishda chuqurlashtirib o‘qitiladi.

Milliy dastur asosida har yili eng salohiyatli 3 ming o‘quvchi tanlanib, Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi dunyoning nufuzli oliyoghlarga tayyorlanadi. Shundan kamida 300 nafari ehtiyojmand oila farzandlari bo‘ladi.

Nufuzli xorijiy oliyoghlarga kirayotgan barcha yoshlar ham 100 foizlik grant olish imkoniyatiga ega emas. Shu bois, endi “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan TOP-300 talik oliyogha kirganlarning o‘qish va yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda ishlay boshlaydi.

Eng avvalo, ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika, energetika, transport, urbanizatsiya, arxitektura, qurilish, qishloq va suv xo‘jaligi kabi drayver sohalar uchun kvotalar oshirilmoqda. Endi banklar TOP-300 talik oliyogha kirgan yoshlarga 20 ming dollargacha imtiyozli kredit beradi.

Sun‘iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha bank-moliya, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi va energetika ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib, 100 ta loyiha amalga oshiriladi. Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda “Bir million sun‘iy intellekt yetakchilari” dasturi ishga tushiriladi.

Massachusetts texnologiya institutining sun‘iy intellekt ta‘lim dasturi asosida informatika o‘quv dasturlari yangilanadi. Viloyatlardagi informatika o‘qituvchilari Yangi O‘zbekiston universitetida ushbu dasturga o‘qitiladi.

“Raqamli avlod qizlari” tanlovida ta‘lim, sun‘iy intellekt, “yashil” iqtisodiyot, iqlim o‘zgarishi kabi sohalarida 7 ming o‘quvchi va talabning 120 ta startap loyihasi tanlab olindi. Joriy yil bu loyihaga kamida 50 ming nafar qizlar qamrab olinadi.

Startaplarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizim yaratilib, ularni moliyalashtirishga 145 million dollar venchur sarmoya kiritildi. Endi bu mablag‘ 1 milliard dollarga yetkaziladi. Maktablarda o‘quvchilar uchun “mohirlik va biznes soati” kiritilib, ularning g‘oyasini startapga aylantirishga 100 milliard so‘m grant yo‘naltiriladi.

Oliyoghlarni o‘rtasida ham startaplar bo‘yicha har yili “Eng yaxshi kreativ g‘oya” tanlovi o‘tkazilib, g‘oliblarga oliyog‘ jamg‘armasidan 300 million so‘mgacha grant beriladi.

Startapni prototipga aylantirish va sinovdan o‘tkazish uchun Innovatsiya



agentligi va IT-park tadqiqot va taraqqiyot markazini ochadi. Bunda, eng yaxshi loyihalar bo‘yicha prototip yaratish xarajatining 50 ming dollargacha qismi Yoshlar venchur jamg‘armasidan qoplanadi.

Endi sanoat, servis, tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligida band yoshlarning kasbiy rivojlanishi bo‘yicha ham tizim yaratiladi. Har bir kasb yo‘nalishi bo‘yicha yoshlar o‘rtasida respublika musobaqalari o‘tkaziladi. Bunda davlat korxonalari va xususiy sektor vakillari tengma-teng ishtirok etadi.

Tarmoq rahbarlari har yili o‘z tizimidagi 100 nafar yoshni seleksiya qilib, xorijiy stajirovkaga yuborishni yo‘lga qo‘yadi. Buning uchun, har bir tarmoq 10 milliard so‘mdan ajratadi.

Ma‘lumki, maktab bitiruvchilari hamda talabalarning bandligini ta‘minlash bo‘yicha ikkita dastur qabul qilingan. Shu maqsadda “Aloqabank” va Milliy bankka 300 million dollar ajratilgan. Ular “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida 100 ming yoshlarni, “Kelajak qadam” orqali 140 ming oliyog‘ bitiruvchisini daromadli ish bilan ta‘minlashga mas‘ul bo‘ladi.

Bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasi Milliy bank bilan birga yil yakuniga oliyog‘, texnikum, kasbiy ta‘lim bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bog‘laydigan platformani ishga tushiradi. “Harakatda daromad” elektron tizimi yaratilib, ta‘tildagi 3 million yoshlar malaka talab qilmaydigan ishlarga jalb qilinadi.

So‘nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari tarkibi ancha yosharib, 40 yoshgacha bo‘lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga oshdi. O‘tgan oyda istiqbolli kadrlar tayyorlash va ularni davlat boshqaruviga jalb etish bo‘yicha Prezident farmoni imzolandi.

Endi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida “Kelajak liderlari” dasturi bo‘yicha har yili 100 nafar salohiyatli yoshlar o‘qitiladi. Ular vazir va hokimlarga biriktirilib, tajriba oltiradi, xorijiy stajirovkaga yuboriladi. Dasturi tamomlagan yoshlar rahbarlik lavozimlariga asosiy nomzod bo‘ladi.

Yoshlar ta‘lim-tarbiyasida kitobsevarlik, san‘at va madaniyatning ahamiyati katta. Shu bois, bu yo‘nalishdagi tanlovlarda g‘olib bo‘lganlar chekka hududlardagi maktablarga borib, chiqishlar qiladi. Buning uchun viloyat

hokimlari bittadan avtobus olib beradi.

Respublika tanlovi g‘oliblariga madaniyat va san‘at oliyoghlarga kirishda imtiyoz beriladi. “Iqtidor” maktab ansambli tanlovining viloyat bosqichi g‘oliblari Bolalar va musiqa san‘at maktablarida bepul o‘qitiladi.

Yosh avlodda vatanparvarlikni kuchaytirish, turli zararli ta‘silardan asrash masalasi ham dolzarb. Poytaxtimizdagi “G‘alaba bog‘i”da ochilgan “Millat fido-yilari” monumentidan maqsad ham shu. U yerda el-yurtimiz tinchligi yo‘lida aziz jonini fido qilgan 196 nafar mard va jasur harbiylarimiz, huquq-tartibot idorolari xodimlarining nomlari muhrlangan. Bu qutlug‘ maskanni ziyorat qilgan yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi yanada yuksalishi ta‘kidlanadi.

Davlatimizning yoshlarga oid siyosatini xalqaro hamjamiyat ham keng e‘tirof etmoqda. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti “Yoshlar — 2030” strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kiradi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz bu borada eng tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan davlat deb topildi.

30 YUN YOSHLAR KUNI Dil so‘zlari TIBBIYOTDAGI GLOBAL MUAMMOLARGA YECHIM BERISH — OLIY MAQSADIM

Muhammadibrohim EGAMBERDIYEV,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
2-bosqich talabasi,
“Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti
sohibi:

— Oiladagi ilmga tashnlik muhiti bilim olishim va tibbiyot sohasiga kirib kelishimda muhim omil bo‘ldi. 2016-2021-yillarda futbolga ixtisoslashtirilgan maktabda o‘qiganman. O‘tgan davr mobaynida respublika miqyosida o‘tkazilgan bir necha musobaqada ishtirok etib, jamoaviy tarzda zafarli o‘rinlarni qo‘lga kiritdim. 2021-yildan 2023-yilgacha esa Toshkent davlat tibbiyot universiteti 2-akademik litseyida tahsil oldim. Litseyda o‘qish davomida qator muvaffaqiyatlarga erishdim. Xususan, 2023-yilda Buxoro shahrida bo‘lib o‘tgan fan olimpiadasining respublika bosqichida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdim va o‘sha yili BAAda tashkil etilgan 34-xalqaro biologiya olimpiadasida bronza medal bilan taqdirlandim. Musobaqada vatanimiz bayrog‘ini dunyoning 100 ga yaqin rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari orasida munosib himoya qildim. Yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tgan boshqa qator mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi olimpiadalar va ko‘rik-tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egalladim.

Toshkent davlat tibbiyot universitetiga imtiyozli ravishda qabul qilindim. Shu kunga qadar 20 ga yaqin maqola, o‘quv qo‘llanmalarim mahalliy va xorijning nufuzli ilmiy jurnallarida chop etildi. EHM uchun yaratilgan dasturimga patent oldim va nufuzli ilmiy konferensiyalarda ishtirok etdim. Bular yaxshi mutaxassis bo‘lib shakllanishimga



ko‘mak bermoqda. IELTS imtihonidan 7,5 ballni qo‘lga kiritdim. 2024-yilda Buxoro shahrida tashkil etilgan ilk xalqaro biologiya olimpiadasida hakamlar hay‘ati vakili sifatida ishtirok etib, uning nazariy qismi uchun jahon standartlariga mos savollar tuzdim. Ushbu savollarni dunyoning taniqli olim va professorlari oldida izohlab, asoslab berdim.

Jahon tibbiyoti oldida turgan global muammolarni hal qilish eng oliy maqsadim. O‘zbekiston ilm-fani dunyoda yetakchi o‘rinlarda bo‘lishini istayman. Kelgusida eng nufuzli xalqaro universitetlarida tajriba o‘tab, o‘rgangan bilimlarim va amaliy ko‘nikmalarimni O‘zbekistonda tatbiq qilish niyatidaman. Ushbu davlat mukofotini qo‘lga kiritganim men uchun juda katta sharaf va yelkamga yuklatilgan mas‘uliyatdir. Bu davlat mukofoti g‘ayratimga g‘ayrat, shijoatimga shijoat qo‘shib, ulkan maqsadlarim tomon dadil odimlashimga turk bo‘ladi.

“Mamlakatimizda chet tillarni o‘qitishga katta e‘tibor qaratilyapti. Shu bois, men ham ingliz tili mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olyapman. Kelgusida yoshlarning chet tillarda erkin so‘zlasha oladigan, jahon mehnat bozorida raqobatdosh kadr bo‘lib yetishishiga ko‘maklashmoqchiman.

SHU YURTNING BAXTLI QIZLARIDANMAN

Nodira ABDIG‘ANIYEVA,
Qoraqalpog‘ davlat universiteti 1-kurs
magistranti,
“Kelajak bunyodkori” medali sohibasi:

— Bu yilgi Yoshlar kuni bayrami men uchun tarixiy ahamiyat kasb etdi. Prezidentimiz qo‘lidan “Kelajak bunyodkori” medalini olish baxti nasib etdi. Qoraqalpog‘istonning eng chekka tumanlaridan biri — Taxtako‘pirda dunyoga kelib, ulg‘ayganman. Bir necha xalqaro tanlovlarni o‘libi va turli grantlar sovrindoriman. Xususan, grant asosida Yevropada o‘qib keldim. Rivojlangan G‘arb ta‘limining eng ilg‘or jihatlarini o‘rgandim. Bakalvriat yo‘nalishida o‘qib yurgan vaqtimda esa Navoiy nomli davlat stipendiyasiga munosib ko‘rilganman.

Mamlakatimizda chet tillarni o‘qitishga katta e‘tibor qaratilyapti. Shu bois, men ham ingliz tili mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olyapman. Kelgusida yoshlarning chet tillarda erkin so‘zlasha oladigan, jahon mehnat bozorida raqobatdosh kadr bo‘lib yetishishiga ko‘maklashmoqchiman.

Mazkur mukofot endi qiladigan xizmatlarim, shu yurt, shu vatanning gullab-yashnashiga qo‘shadigan hissam uchun berildi deb o‘ylayman. “Kelajak bunyodkori” medali berilgani zimmamga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Bir yig‘inni o‘qitsang, bir insonga, bir ayolni o‘qitsang, butun millatga ta‘lim bergan bo‘lasan, degan hikmat bor. Bugun bu o‘g‘it yanada teran ma‘no kasb etgan. Xotin-qizlar ta‘limiga e‘tibor jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishini bugun xalqimiz yaxshiroq tushunyapti. Ilmiy ayol o‘ila farzandlariga yaxshi ta‘lim-tarbiya bera oladi, jamiyat rivojiga munosib hissa qo‘shadi. Savodxonlik darajasi oshishi, har bir oilada sog‘lom turmush tarzi qaror topishi o‘sha xonadon bekasidan bilim talab etadi. Ayolning ilmiy bo‘lishi millat taraqqiyotida juda muhim.

Shu bois, yurtimizda xotin-qizlar ta‘lim olishi uchun barcha imkoniyat yaratilmoqda, imtiyozlar berilyapti. Bu ham bizning baxtimiz. Men shu yurtning baxtli qizlaridanman.



E‘TIBOR BOR JOYDA YUKSALISH BO‘LADI

Jahongir NOSIROV,
jurnalist, “Mard o‘g‘lon” davlat
mukofoti sohibi:

— Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanib, jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jurnalistlar faoliyati shaxsan Prezidentimiz e‘tiborida. Soha vakillari davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanib, rag‘batlantirilmoqda. Yurtimizda kasb bayramimiz keng nishonlanishi va jurnalistlarning davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi buning yaqqol tasdig‘i.

Davlatimiz rahbarining bir necha yil avval “Men haqiqat va adolati o‘z e‘tiqodi deb biladigan barcha jurnalistlarni — islohotlarning faol ishtirokchilari, o‘zimizning eng yaqin do‘stlarim deb bilaman va ular hamisha Prezident himoyasida bo‘ladi”, deb aytgan gaplari hech esimdan chiqmaydi. Men bu so‘zlardan hamon kuch olaman.

Shu bois, yurtimizda kechayotgan islohotlar natijasini chetda turib jimgina kuzatmoqchi emasman. Mamlakatimiz yutuqlarini jahon matbuotida yoritib borishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘yganman.

Hamma gap natijada, ya‘ni havas qilingan marrani egallash va maqsadga yetishishda. Bu yo‘lda maslahat, tanbeh beruvchilaru yo‘ldan qaytarishga urinuvchilar ko‘p topiladi. Tinimsiz ishlash, kitob mutolaa qilish bilangina g‘alabaga erishib bo‘lmaydi. Izlanish, intilish, vatanni sevish kerak. Mutaxassisligim bo‘yicha bilimlarning eng keraklisini chuqur o‘rganishga intilaman. Bu yondashuv shu kunga qadar o‘zini oqlayapti.

Yoshlar timsolida eng qimmatli va o‘ta muhim resurslar mujassam bo‘lib, unga har qancha investitsiya kiritisa arziydi, chunki



bu sarmoya etaga bir necha barobar ziyod bo‘lib qaytadi. Shu ma‘noda, yoshlarga qaratilayotgan e‘tibor ham o‘z natijasini berishi shubhasiz.

Davlatimiz rahbari qaroriga binoan “Mard o‘g‘lon” davlat mukofotiga loyiq ko‘rilib, Yoshlar kuni arafasida iqtidorlilar orasida e‘tirofga sazovor bo‘lganimdan buniham mamnunman.

Ushbu mukofot katta xursandlik bilan birga zimmasizlikka ulkan mas‘uliyat yuklamog‘da. Prezidentimizning “Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lib o‘tirish taraqqiyot yo‘lidagi eng katta g‘ovdir”, degan gapi bizni yana oldinga chorlab, mehnat qilishga undaydi.

Barcha amaliy ishlar, eng avvalo, inson qadri, xalq farovonligi uchun amalga oshirilmoqda. Shunday ekan, davlatimizning biz, yoshlarga ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rligiga mehnatdagi yutuqlarimiz bilan javob berishimiz darkor.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolot MADIYEVA yozib oldi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI – ISLOHOTLAR SAMARADORLIGI ASOSI



Bobur ISLOMOV,
togʻ-kon sanoati va geologiya vaziri

Boshlanishi 1-betda

Ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha yagona va uzluksiz "texnologik zanjir"ni tashkil qilish borasidagi ustuvor yo'nalishlar etib:

— qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar loyihalarini har tomonlama puxta hamda yuksak professional darajada tayyorlash;

— boshqaruv tizimi, zamonaviy O'zbekistonni rivojlantirishning yangi bosqichini, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani, shuningdek, respublika hududlarini maqsadli hamda ustuvor vazifalarga muvofiq takomillashtirish;

— qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali va rejalı tashkil qilish, ularning bajarilish holatini maqsadli o'rganish, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tezkor choralar ko'rish;

— qonunchilik hujjatlari va topshiriqlardagi nazorat bandlarida aniq mexanizmlar, muddatlar va mas'ullar belgilanishi bo'yicha "yo'l xaritalari"ni (nazorat rejalari) o'z vaqtida ishlab chiqish;

— ijro intizomiga mas'ul bo'linmalarining ijro intizomini mustahkamlashdagi rolini oshirish;

— tashkiliy, ijro va nazorat faoliyati yagona tizimining natijadorligi uchun davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish belgilangan.

Demak, har qanday hujjat ijrosini ta'minlashda ularda belgilangan amaliy mexanizmlar, shakllar va usullardan samarali foydalanish zarur.

Shundan kelib chiqib, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida ijro intizomini mustahkamlash maqsadida ish yuritishning ichki jarayonlari avtomatlashtirilib, elektron hujjat aylanishi tizimi to'liq joriy etilgan. Soha faoliyatiga taalluqli hujjatlar ijrosini tashkil qilish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilish, ularni tegishli xodimlarga muddatida va to'liq

yetakzish hamda nazorat kartotekalarini yuritish tizimi yo'lga qo'yilgan. Jumladan:

birinchidan, qonunchilik hujjatlari vazirlikka kelib tushishi bilan darhol rahbarning uni ijroga qaratish yuzasidan topshirig'i tayyorlanadi va imzolaniib, tegishliligi bo'yicha mas'ul ijrochilarga yetkaziladi;

ikkinchidan, qonunchilik hujjatlaridagi topshiriqlarga aniq mexanizmlar, muddatlar va mas'ullar belgilanishi bo'yicha nazorat rejalari ishlab chiqiladi hamda ularni har bir xodimning shaxsiy ish rejasida aks ettirilishi ta'minlanadi;

uchinchidan, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini barvaqt va samarali tashkil etish choralari ko'rilib,

"Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida o'z vaqtida hisobot berilishiga alohida e'tibor qaratiladi;

to'rtinchidan, ijro intizomini mustahkamlash va topshiriqlarning o'z vaqtida hamda sifatli ta'minlash maqsadida haftaning har dushanba kuni vazir huzurida, chorshanba va juma kunlari vazir o'rinbosarlari boshchiligidagi muhokama qilinadi va zaruriy choralar ko'rib boriladi.

Har payshanba kuni vazir boshchiligidagi tizim tashkilotlari va hududiy boshqarmalar bilan o'tkaziladigan videoselektor muhokamalarida ham ijro intizomi masalasi ko'rib chiqiladi;

beshinchidan, qo'yilgan vazifalarning mohiyati va ahamiyatini vazirlik, tizim tashkilotlari mas'ullari o'rtasida tushuntirish maqsadida "iqtisodiy o'qish"lar tashkil etib boriladi.

Vazirlar Mahkamasi, Hisob palatasi va Adliya vazirligi bilan birgalikda ijro intizomini mustahkamlash, mazkur

oltinchidan, qonunchilik hujjatlaridagi topshiriqlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli ijro etilishi nazoratga olinib, vazirlik hay'ati yig'ilishlarida muhokama qilinib, mo'ljallangan maqsadlarga erishilishi hamda ijro intizomi holati xodimlarning KPI tizimida aks ettirilib boriladi;

yettinchidan, vazirlikda belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash maqsadida har oyda (kunbay) kalendrar grafik va vazir o'rinbosarlari kesimida "yo'l xaritalari" ishlab chiqilib, tasdiqlanadi.

Mazkur amaliy chora-tadbirlar samara ko'rsatmoqda. Jumladan, vazirlikka belgilab berilgan vazifalar doirasida 2024-yilda

“

Joriy yil yakuniga qadar 467 ta topshiriq ijrosi ta'minlanishi talab etilib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari 110 foiz, mahsulot eksporti 107 foiz bajarilishi rejalashtirildi. Bundan tashqari, umumiy qiymati 2,6 milliard AQSH dollarini tashkil etuvchi investitsiya o'zlashtirish belgilangan, shundan 1 milliard dollari geologiya-qidiruv yo'nalishidagi yangi loyihalarga tegishlidir.

shaffof mexanizmlar asosida elektron auktsion platformasi orqali tadbirkorlarga taklif etilgan kon va yer uchastkalari hisobidan davlat byudjetiga deyarli 240 milliard so'm tushum ta'minlangan. Joriy yilda bu ko'rsatkich 2 barobar oshishi kutilmoqda.

2024-yil 31-oktabrda yangi tahrirdagi "Yer qari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonun ijrosini ta'minlash,



Shuningdek, qonundan kelib chiqib, bir qator qonunosti hujjatlar, hukumat qarorlariga tegishli o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritilmoqda.

2025-yilda yirik sanoat loyihalaridan biri — yiliga 1 million tonna quvvatga ega, issiq holda prokatlangan list o'ramlar ishlab chiqaradigan quyuv prokatlash majmuasini foydalanishga topshirish choralari ko'rilmoqda.

Joriy yil yakuniga qadar 467 ta topshiriq ijrosi ta'minlanishi talab etilib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari 110 foiz, mahsulot eksporti 107 foiz bajarilishi rejalashtirildi. Bundan tashqari, umumiy qiymati 2,6 milliard AQSH dollarini tashkil etuvchi investitsiya o'zlashtirish belgilangan, shundan 1 milliard dollari geologiya-qidiruv yo'nalishidagi yangi loyihalarga tegishlidir.

2024-yil davomida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida O'zbekiston Prezidenti hujjatlarida ("Ijro.gov.uz" tizimida) jami 627 ta (shundan 447 ta topshiriqda vazirlik asosiy ijrochi), hukumat hujjatlarida 521 ta topshiriq belgilangan bo'lib, ularning ijrosi o'z vaqtida va to'liq ta'minlanib, nazoratdan yechilgan.

2025-yil yanvar-iyun oylari davomida Prezidentning ("Ijro.gov.uz" tizimida) 86 ta hujjatidagi jami 287 ta (shundan, yanvar — 57 ta, fevral — 22 ta, mart — 40 ta, aprel — 42 ta, may — 29 ta, iyun — 97 ta) topshiriq nazoratga olindi. Ularning o'z muddatida sifatli ijrosini ta'minlash maqsadida temir intizom bilan ishlanishi natijasida barchasining ijrosi to'liq ta'minlandi va nazoratdan yechildi.

Vazirlik tizimida ijro intizomi bevosita xodimlarning KPI tizimiga bog'langan, topshiriqlarning ijro muddatini buzgan mas'ullarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash hamda lavozimdan ozod qilish kabi keskin choralar ham ko'rib borilmoqda.

Xususan, 2024-yil va 2025-yilning o'tgan davri mobaynida 9 xodimga hayfsan, 5 xodimga qat'iy ogohlantirish hamda 4 xodimga intizomiy jazo chorası sifatida jarimalar qo'llanildi.

Prezidentimizning 2024-yil 13-martdagi "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) baholab borish tizimi yo'lga qo'yildi.

Vazirlik faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi tegishli qarori bilan tasdiqlandi. Qarorda tog'-kon sanoati va geologiya vaziri, uning o'rinbosarlari 2025-yil I chorak uchun 41 ta, II chorak uchun 44 ta, III va IV choraklar uchun 49 ta faoliyatning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichi belgilab berildi.

Joriy yil I choragi yakunlari bo'yicha barcha ko'rsatkichlar yuz foiz bajarildi. Hozir II chorak yakunlari bo'yicha belgilangan ko'rsatkichlarni to'liq bajarish choralari ko'rilmoqda.

Davlatimiz rahbari raisligida 2025-yil 16-iyun kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ijro intizomini mustahkamlash, aholi muammolari bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilinishi, "Xalq nazorati" elektron portali ishga tushirilishi belgilab berildi.

Ushbu ko'rsatma va ustuvor vazifalardan to'g'ri xulosa qilinib, vazirlikda yaratilgan

“

Davlatimiz rahbari raisligida 2025-yil 16-iyun kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ijro intizomini mustahkamlash, aholi muammolari bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilinishi, "Xalq nazorati" elektron portali ishga tushirilishi belgilab berildi.

ijro intizomi tizimi qayta ko'rib chiqildi va uni yanada mustahkamlash choralari ko'rildi.

Haftaning uch kuni davomida topshiriqlar ijrosi samaradorligini hududlarda maqsadli o'rganish, aholi va tadbirkorlarni qiynayotgan muammolar bilan joyida tanishish hamda sohadagi davlat xizmatlarini qulay ravishda ko'rsatish kabi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi.

Ijro intizomini mustahkamlash maqsadida vazirlik va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarda muntazam ravishda "iqtisodiy o'qish"lar tashkil qilinmoqda. Bundan asosiy maqsad — hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish hamda ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash.

Joriy yilning o'tgan davrida mutasaddi vazirlik va idoralar ishtirokida kambag'allikni qisqartirish va bandlik masalalari, eksport prognoz ko'rsatkichlari ijrosi va yurtimizda korruptsiyadan xoli muhit yaratishni davom ettirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar bo'yicha "iqtisodiy o'qish"lar o'tkazildi.

Islohotlar faqatgina qaror qabul qilish bilan cheklanmaydi. Ular tatbiq etilmasa, odamlar hayotida sezilarli o'zgarish bo'lmaydi. Shuning uchun har bir sohada faoliyat yuritayotgan rahbar va xodim ijro intizomiga jiddiy e'tibor qaratishi, yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishi zarur.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, har qanday qarorning qiymati uning amalda qay darajada ijro etilishida namoyon bo'ladi. Bu esa ijro intizomining ahamiyatini yana bir bor yaqqol ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, geologiya va tog'-kon sanoati iqtisodiyotning asosiy drayveri bo'lgani kabi ijro intizomi ham islohotlarning "yuragi", ya'ni uning harakatga keltiruvchi kuchidir. Ijro intizomi bor joyda aniqlik, mas'uliyat, samaradorlik va natija bo'ladi. Bu mamlakat taraqqiyoti hamda xalq farovonligining asosiy kafolati hisoblanadi.

Dolzarb mavzu



Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi

Keyingi yillarda aholi tinch-osoyishta hayot kechirishi uchun huquqiy va tashkiliy mexanizmlar tubdan qayta ko'rib chiqildi. Huquq-tartibot idoralari faoliyati qayta shakllantirildi, zamonaviy texnika va moddiy resurslar bilan ta'minlandi. Eng asosiy, huquqbuzarlikni jazolash emas, balki jinoyatlarning oldini olish asosiy mezoniga aylantirilmogda.

Prezidentimizning 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika

JINOYATNING OQIBATI BILAN EMAS, SABABLARI BILAN KURASHISH — ENG MAQBUL YO'L

Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishga eng ustuvor masalalardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilyapti. Soha izchil takomillashtirilib, samaradorligi uzluksiz oshirilyapti.

mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida barcha mutasaddi idoralar oldiga jinoyatlarning oldini olishga yo'naltirilgan infratuzilma yaratish vazifasi qo'yildi. Shu asosda bajarilgan ishlar natijasida 2025-yilning dastlabki 5 oyida o'rtaacha darajadagi jinoyatlar 12, og'ir jinoyatlar 37,3 foiz kamaydi. Qotillik, o'g'rilik, talonchilik, firibgarlik va mast holda avtohalokat sodir qilish kabi ko'plab jinoyat turlari keskin kamayishiga erishildi.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining topshirig'i asosida joriy yil davomida mamlakatda kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan hududlardagi real holat o'rganilib, maxsus ishchi guruhlar tomonidan mahallalardagi "yettilik" faoliyati, huquqbuzarliklarning sabablari va korruptsiyaga qarshi kurash ishlari atroficha tahlil qilindi. Afsuski, o'rganishlar ayrim "mahalla yettiliklari" va rahbarlar

mazkur sohadagi talab va vazifalardan bexabarligini, huquqbuzarliklarning oldini olishga mas'uliyatsizlik bilan qarayotganini ko'rsatdi.

Jinoyatlarning 36,4 foizi mahallalarda sodir etilgani mahalliy darajadagi profilaktika ishlari talab darajasida emasligidan dalolat. 813 ta mahalla "qizil" toifaga kiritilgani esa ularda jinoyatchilik yuqoriligini anglatadi. Demak, joylardagi "yettilik"lar faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, ularni qayta tayyorlash va nazoratni kuchaytirish talab etilmoqda.

Tashvishlanarli holatlardan biri — oilalarda sodir etilgan qotilliklar. Shu yili ro'y bergan bunday og'ir jinoyatlarning 53,4 foizi oilaviy munosabatlar doirasida sodir etilgan. Bu esa oilalardagi nizolarni barvaqt aniqlash, ruhiy tushkunlik va zo'rvonlik holatlariga chora ko'rish borasida mas'ul idoralar yetarlicha ish olib bormayotgani oqibatidir. Samarqand va Navoiyda sodir bo'lgan ikki mudhish jinoyat oilaviy nizolar

“

Yana bir muammo — axborot texnologiyalari vositasida sodir etilayotgan kiberjinoyatlar. Besh oyda 18 ming 327 ta ana shunday jinoyat sodir etilgan. Ularning 94,4 foizi firibgarlik va o'g'rilikdir. Mazkur ko'rsatkichlar jinoyatchilik zamonaviy shakllarga o'tayotganini ko'rsatadi. Demak, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar ham faoliyatini tezkor raqamli tahlil va elektron nazorat asosida tashkil etishi lozim.

va murakkab holatlar jinoyatgacha yetaklashi mumkinligini yaqqol namoyon etdi.

Bir qarashda yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik statistikasida ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgandek tuyuladi. Besh oyda 2846 yosh 2919 ta jinoyat sodir etgan, ko'rsatkich o'tgan yildagiga nisbatan 20 foiz kamaygan. Ammo voyaga yetmaganlar sodir etgan 567 ta jinoyatning 84,3 foizi tarbiyadan chetda qolgan, ota-onasi yetarli e'tibor bermagan bolalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bunday holatlar "oila — maktab — mahalla" tizimi so'nggi paytlarda talab darajasida ishlamayotganidan darak beradi.

Xotin-qizlar sodir etayotgan jinoyatlar ham alohida tahlilga muhtoj. 2025-yilda 672 ayol

723 ta jinoyatga qo'lga urgan. Ular orasida og'ir jinoyatlar mavjud. Ayniqsa, Urganchda yuz bergan o'ta shafqatsiz jinoyat ijtimoiy muammolar yechimsiz qolganda ayollar ham jinoyatga qo'l urishi mumkinligini ko'rsatdi. Ayollar bilan ishlovchi faollar va "mahalla yettiligi" ularga zarur yordam ko'rsatmagan, profilaktika ishlari olib bormagan.

Yana bir muammo — axborot texnologiyalari vositasida sodir etilayotgan kiberjinoyatlar. Besh oyda 18 ming 327 ta



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Bugun urbanizatsiya, raqobat va global tengsizlik jarayonlari ta’limni nafaqat inson, balki millat taqdirini hal qiluvchi asosiy omilga aylantirmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyoti inson kapitali sifatiga bog‘liq. Shu bois, sifatli ta’lim hayotimizning bosh mezoniga aylanib bormoqda.

Davlatimiz rahbari joriy yil 15-may kuni maktab ta’limi tizimidagi islohotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham ta’limning beqiyos ahamiyatiga yana bir bor urg‘u berdi: “Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog‘lom va bilimli avlodga bog‘liq. Shu bois, yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida sog‘lom, bilimli, teran fikrli va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur”.

Bu gaplar qog‘ozda yozilgan oddiy bayonot emas, balki amalda hayotga tatbiq etilayotgan jarayondir. Bugun har birimiz ta’limning ahamiyatini o‘z hayotimiz misolida anglab bormoqdamiz.

Har bir bola dunyoga kelar ekan, u bilan birga yangi orzular, umidlar va intilishlar tug‘iladi. Bu orzular har doim farovon, umidli hayotga bag‘ishlangan bo‘ladi. Bugungi bola — ertangi yurt egasi. U qanday fikrlaydi, nimani istaydi, nimani qadrlaydi — shu orqali ertangi jamiyat shakllanadi.

Kindir “O‘g‘lim shifokor bo‘lsin”, “Qizim o‘qituvchi bo‘lsin”, deydi. Boshqalar esa “O‘zini topsin, odam bo‘lsin”, deb orzu qiladi. Ammo qaysi yo‘lni tanlamasin, har bir bolaning kelajagi bilim bilan bog‘liq. Ta’lim faqat maktab darslari emas, balki fikrlash, anglash, o‘zini kashf etish jarayonidir. U orqali bola hayotda o‘rnini topadi, jamiyat esa mustahkam asosga ega bo‘ladi.

Ilm va ma’rifat bo‘lmagan joyda taraqqiyot haqida so‘z yuritish cho‘lida bog‘ barpo qilishga urinish kabitdir. Ta’lim faqat shaxsiy rivoj emas, balki jamiyatning har bir qatlamini qamrab oluvchi ijtimoiy harakat kuchidir.

Yaqinda qishloqqa bordim. U uch tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan, tuman markazidan 30 chaqirim ichkarida joylashgan. “Yo‘q, zamondan uzilib qolgan”, degan fikrni aytmoqchi emasman. Balki bugun bolalarning qoyalarga urilib, aksi qaytayotgan qiyqiriqlarida, bobolarning gurungida yangi qarashlar ildiz otib bormoqda. Jimitdek qishloqda ikkita davlat bog‘chasi, yana bir qancha xususiy bog‘cha qurilib, bolalar ta’limida mustahkam poydevor bo‘lmoqda.

Endi bolalar adir yoqalab qo‘y-qo‘zining ortidan yurgani emas, balki shinam bog‘cha xonalarida ta’lim olayotgani odamni quvontiradi. Yillar davomida past tekislikdagi maydonchani changitib, to‘p orqasidan quvib yurgan bolalar bugun jahon minbarlarida nomi tildan tushmayotgan futbolchilarimiz izdoshlari bo‘lib tarbiyalanmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, bugun millat mijrosida odamlar dunyogarashida, ongu tafakkurida buriilish boshlandi.

Bir guruhda qishloqda ancha yillardan buyon odamlarning molini boqib kelayotgan Yormat cho‘ponning kenja o‘g‘li Amerikadagi nufuzli universitetdan grant yutib, o‘qishga jo‘nab kergani haqida eshitdim.

Bunday xabarlar bugun ko‘pchilik uchun odatiy bo‘lib qolganday tuyulishi mumkin. Boisi, hozir o‘zbek yoshlarining xorijda o‘qishi, xalqaro tanlovlarda ishtirok etishi yoki grant yutishi hayratlanarli emas. Ammo masalaning botiniga chuqurroq nazar tashlasak, bu butun umrini qishloqda chorva boqishga bag‘ishlagan, eng ko‘pi bilan poytaxtga borib kelgan yoki sobiq tuzum davrida armiya xizmati tufayli chet el yuzini ko‘rgan oddiy inson uchun butunlay boshqa dunyo, boshqa hayot, boshqa uyug‘udir.

Ha, bir vaqtlar bola otasidan “Dada, men kim bo‘laman?” deb so‘rasa, ko‘pchilik otalar bu savolga javob topa olmasdi. Chunki savol kelajak haqida edi, holbuki, odamlar tirikchilik va turmush qiyinchiliklarida g‘arq bo‘lgan, ta’lim orzu emas, ortiqcha sarf-xarajat edi. Kim bo‘lish muhim emasdi — asosiysi, bola ishlab, pul topsa, bir amallab qora qozon qaynasa bo‘ldi. Ko‘p oilalar uchun ilm hayotni yaxshilash yo‘li emas,



balki uzoq va yetib bo‘lmas yo‘ldek tuyulardi.

Oqibatda minglab yoshlar o‘z orzu-havaslarini chet el bilan bog‘ladi. O‘zga yurt ostonasidan yurtga bejo tikilayotgan ko‘zlarda ona vatan sog‘inchi, yaqinlari qadri va unga har qadam uqtirilayotgan



mardikorlik tamg‘asi orom bermasdi. Bu yuqda bolasi qo‘liga qarab turgan ota-onalar, umri otasining yo‘lini poylab, sog‘inchdan ko‘zlari yoshlangan bolalar.

Bugungacha bo‘lgan yo‘lda ne-ne tengqurlarimiz o‘z hayot yo‘lini o‘zga yurtlarga burib yubordi. To‘g‘ri, ularning aksariyati pul topib, uy ko‘tardi, to‘y qildi. Ammo bu yo‘l o‘zgarmadi.

Taniqli avar shoiri Rasul Hamzatovning bir gapi bor: “Har bir odam bolaligidan o‘z xalqining vakili bo‘lish uchun dunyoga kelganini bilishi va shu sharaflil vazifani zimмага olishga o‘zini tayyorlashi kerak”. Ikki qatarga siqqan bu jumlani bugun har bir kishi o‘ziga berib ko‘rishl kerak. Tarbiya ortida butun millat taqdiri yotadi deyishlari. Aytaylik, umrlarining qanchadir qismini Rossiyaning qalin o‘rmonlarida daraxt kesishga sarflagan, bolalarini bir yilda bir ko‘rishga majbur bo‘lgan otaning farzandlari oldidagi qarzdorligini hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi. Bunday holatda moddiy vajlarga ham o‘rin qolmasa kerak.

Bugun eski qarashlar, tasavvurlar o‘zgardi. Odamlar ko‘z ochdi. Ta’lim endi mablag‘ yemas, investitsiya sifatida ko‘rila boshlandi. Chunki taraqqiyot birinchi navbatda inson ongida sodir bo‘ladi — fikr o‘zgarsa, hayot o‘zgarishi boshlanadi.

Buni biz maktab yoki universitet devorlarini yangilash emas, insonning butun dunyogarashini yangilashga qaratilgan jarayon deb bilsak ham bo‘ladi. Eng asosiy o‘zgarish ham aynan shu — odamlarning ongidagi to‘siqlar parchalanmoqda. Endi ko‘plab ota-onalar farzandining qiziqishiga, iste‘dodiga quloq tutyapti. “Kim bo‘lsang bo‘l, lekin o‘zingga ishon!” degan g‘oya kundalik hayotda namoyon bo‘lyapti. Kelajakni mehnatda emas, bilimda ko‘ra boshlaganlar soni ortyapti.

Bu o‘zgarishlarni ta’lim tizimining eng ilk bo‘g‘ini — maktabgacha ta’limdan boshlab his etish mumkin. Bugun bolalarning 70

foizdan ortig‘i bog‘cha ta’limi bilan qamrab olingan. Oxirgi 7 yilda maktabgacha va maktab ta’limi uchun mablag‘ 7 barobar oshirilgan. Bu jamiyatda sodir bo‘layotgan katta buriilishlardan dalolatdir.

Ilgari qishloq bolasi ertalab mol ortidan chiqib, kechqurun charchoq bilan uyga qaytardi. Bobo va momoning ertagi bilan o‘sardi, maktabga alifboni bilmay kirardi. Oqibatda bilimda uzilish, dunyoqarashda torlik yuzaga keldi. Bugun esa hatto chekka hududlarda ham davlat va xususiy bog‘chalar ochilyapti, bolalar 3-4 yoshidan xorijiy tillar, zamonaviy ko‘nikmalarni o‘zlashtirmoqda.

Shu asosiy ko‘prik orqali ularning orzusi boshqa voqelikka aylanmoqda. Har bir bolaga imkoniyat yaratish orqali nafaqat uning, balki butun mamlakat taqdirini o‘zgartirish g‘oyasi ilgari surilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda universitetlar ko‘payib, zamonaviy ta’lim maskanlari soni ortib bormoqda. Ilgarigidek “porasiz kira olmaydi”, degan tushunchalar ortida qoldi. Ta’lim teng huquq, ochiqlik, shaffoflik maskaniga aylandi.

Bolalar xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etib, yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarmoqda. Ularning yutuqlari faqat maqtab yoziladigan natija emas — boshqalarga ham ruhiy tayanch bo‘lyapti.



Kitobxonlik madaniyati qayta tiklanmoqda, debatlar, interaktiv o‘qitish usullari ta’limni inson markazida ko‘rayotgan tizimni yaratmoqda.

Ta’lim — shunchaki dars emas. U inson tafakkurini uyg‘otuvchi kuch, o‘zligini anglashga yetaklovchi nurdur. Ta’lim bolaga yozishni, hisoblashni emas, balki o‘ylashni, shubhalanishni, so‘ngra ishonishni o‘rgatadi. Ta’lim bor joyda tenglik bor. Ta’lim bor joyda imkoniyat bor. Eng muhimi, ta’lim bor joyda adolat bor.

Bolalarning ilmga munosabati va ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar orqali jamiyatning farovonligi, madaniyati va ma’naviy yetukligi shakllanadi. Har bir bola maktabgacha ta’limdan boshlab yetarli tarbiya va zamonaviy bilim olsa, u o‘z iqtidoriga ishongan, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar fuqaro bo‘lib yetishadi. Bu esa faqat bir oila, bir inson taqdiriga emas, butun millat taqdiriga ta’sir ko‘rsatadi.

Bugun ta’lim sohasidagi islohotlar yosh avlodning ruhiy-ma’naviy poydevorini yaratishga xizmat qilmoqda. Qishloqdagi bog‘chadan tortib, xalqaro universitetlargaacha yo‘l ochilayotgan ekan, bu davlatning kelajakka investitsiyasi, millatning o‘z farzandiga ishonchi, eng muhimi, inson qadriga e’tirofidir.

Bolalarga berilayotgan har bir dars, har bir ruhiy tarbiya millatning ertangi taraqqiyoti, mustaqilligi va barqarorligi uchun asos yaratadi. Shu bois, har bir jamiyat o‘z kelajagini faqat va faqat bolalarning bugungi ta’lim bilan ta’minlanganini ko‘rishl, ular orqali o‘z baxti va muvaffaqiyatini qurishi zarur.

Shuning uchun bugun ta’limga qaratayotgan e’tiborimiz orqali biz kelajakni, insonni, millatni qayta yarataymiz. Chunki har bir bolaning orzusida butun jamiyatning kelajagi yashaydi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

AHOLI SALOMATLIGI — MODDIY MANFAATDORLIKDAN USTUN

Ayni paytda mamlakatimiz tibbiyotida chuqur sifat o‘zgarishlari yasashga qaratilgan sa’y-harakatlar samarasini yurtodoshlarimiz o‘z hayoti misolida seza boshladi. Buni yaqin kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib, shov-shuv bo‘lgan ba’zi fikrlar ham tasdiqlaydi.



Nuriddin NURITDINOV,
“HAYAT” klinikasi rahbari, tibbiyot fanlari doktori

Birinchi misol. Bir yurtdoshimiz bunday yozyapti: “Yaqinda bo‘lgan voqea: 103 chaqirgandim, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatgandan keyin planshetdagi maxsus ilovaga barcha ma’lumotni kiritdi. Ertasi kuni mahalladagi poliklinikada qo‘ng‘iroq qilib, hol-ahvol so‘rashdi... O‘tgan hafta bir xususiy shifoxonada davolangandik. Uyga qaytganimizning ertasiga qo‘ng‘iroq qilib, sog‘li‘imiz bilan qiziqishdi. Tibbiyot sohasida nimadir o‘zgarish bo‘lib men bexabar qolib ketdimmi yoki bu odatiy holmi?!”.

Ha, ilgari bunday bo‘lmagan, bemorning tibbiyot daftarlari ham, kasallik varaqasi ham, barcha tashxisu ma’lumotlari ko‘ringan joyida qolib ketgan. Tuzalgunicha shifokor yozib bergan dori-darmonni ichgan, ukolni olgan, tamom. Kelgusi safar og‘rib qolganida yana hammasini boshidan boshlashiga to‘g‘ri kelgan. Endi barchasi butkul boshqacha: bemorga taalluqli hamma ma’lumot ikir-chikirigacha maxsus dasturga kiritiladi. Xasta mamlakatimizdagi qaysi shifoxonaga bormasin, kasallik tarixi mutaxassisga yaqqol ko‘rinadi. Bu muolaja ishlarini ham juda osonlashtiradi. Oilaviy shifokorlarning qo‘ng‘iroq qilib, hol-ahvol so‘ragani esa tibbiyotchilarimizda kasbiy malaka bilan birga bemorlar bilan muloqot qilish madaniyati, kerak bo‘lsa, ruhiy qo‘llab-quvvatlov ko‘nikmasi ham oshib borayotganini ko‘rsatadi.

“Davlatimiz rahbari tizimni to‘liq raqamlashtirish, “elektron retsept”, “elektron poliklinika”, “elektron shifoxona” platformalarini amaliyotga joriy etish haqida ham jiddiy topshiriqlar berdi. Bu bo‘yicha biz ham izchil ishlayapmiz. Mijozlarga tegishli tibbiy ma’lumotlarni yaxlit dasturda jamlab, barcha ixtisoslikdagi shifokor va mutaxassislarga onlayn ko‘rinadigan shaklda joylashtirganmiz. Bu bilan to‘xtab qolmaymiz, albatta.

Ikkinchi misol. “O‘zbekistondagi tibbiyotning AQSHdagidan bir ustun jihati bor. Istalgan malakali shifokor kerak bo‘lsa, o‘sha kunning o‘zida topib, ko‘rinsa bo‘ladi. AQSHda qabulga yozilgandan keyin haftalab, oylab navbat kutish kerak”, deb yozadi yana bir vatandoshimiz.

Demak, aytilgan gaplar aytilgan joyda qolib ketayotgani yo‘q. Vazifalar ijroga qaratilib, oddiy odamlar hayotida aks eta boshlagan. Aslida, shunday bo‘lishi kerak. Chunki bugungi sa’y-harakatlar O‘zbekistonni Markaziy Osiyoning tibbiyot xabiga aylantirishga qaratilgan

Shu yil 7-may kuni Prezidentimiz raisligida tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini yanada oshirish, dori vositalari

iste‘molini tartibga solish hamda tibbiy ta’limni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishda aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashga doir hal qiluvchi vazifalar belgilandi. Xususan, “Tibbiyotda 90 kunlik o‘zgarishlar” dasturi boshlanishi e‘lon qilindi.

Bu jarayonda tibbiy xizmat sifatini ta’minlash bilan birga kutish joylarida qulay o‘rindiqlarni ko‘paytirib, navbatni tartibga keltirish, “ona-bola” xonalarini tashkil qilish, nogironligi borlar erkin harakatlanishi uchun kirish-chiqish joylari, xona va yo‘laklarda inklyuziv muhit yaratish zarurligi uqtirildi. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, bunday sa’y-harakatlar tibbiyot muassasasiga madaniyat, tartib-intizom, fayz olib kirib, odamlarga ijobiy kayfiyat ulashadi.

“Tibbiyotda 90 kunlik o‘zgarishlar” dasturini davlat tibbiyot muassasalari qatori xususiy klinikalar, jumladan, “HAYAT” klinikasi jamoasi ham katta mas’uliyat bilan qabul qildi. Chunki moliyalashtirish manbalari turlicha bo‘lgani bilan mijozimiz yagona — bu xalqimiz. Yurtdoshlarimizga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, salomatligini mustahkamlash, turli kasalliklarga chalinishining oldini olish biz uchun moddiy manfaatdorlikdan yuqori turadi. Shu bois, davlatimiz rahbarining



o‘zini butkul oqlagan. Shu bois, davlatimiz rahbari tibbiyot xodimlarining maoshini ko‘tarish orqali tibbiy xizmat sifati hamda soha xodimlarining aholi salomatligiga mas’uliyatini yanada oshirishni nazarda tutmoqda. Bu biz uchun ham o‘rganishga arzigulik o‘ziga xos tajriba. KPI tizimini joriy etish orqali klinikamiz mijozlarga sifatli va samarali xizmat ko‘rsatishiga intilamiz. Chunki halol xizmatidan manfaatdorligi oshgani sari shifokor va hamshiralarning ishga munosabati ham boshqacha bo‘ladi. Har bir bemorga alohida e’tibor qaratadi va salomatligi uchun astoydil qayg‘uradi.

Davlatimiz rahbari tizimni to‘liq raqamlashtirish, “elektron retsept”, “elektron poliklinika”, “elektron shifoxona” platformalarini amaliyotga joriy etish haqida ham jiddiy topshiriqlar berdi. Bu bo‘yicha biz ham izchil ishlayapmiz. Mijozlarga tegishli tibbiy ma’lumotlarni yaxlit dasturda jamlab, barcha ixtisoslikdagi shifokor va mutaxassislarga onlayn ko‘rinadigan shaklda joylashtirganmiz. Bu bilan to‘xtab qolmaymiz, albatta. Klinikamizdagi ma’lumotlar bazasini davlat tibbiyot muassasalarining elektron bazasi bilan integratsiya qilish bo‘yicha jiddiy qadamlar qo‘yganimiz.

Bu sa’y-harakatlarimizning barchasi xalqimiz salomatligini asrab-avaylash va mustahkamlash yo‘lidagi umummilliy harakatga hissa qo‘shishga qaratilgan.

